

Havo issiq. Yoz chillasi bo'lishiga qaramay ayvonda erkak kishining xurrak otgani eshitiladi. Hovli o'rtasida yotgan Olapar, ikki oy oldin qo'shnining to'yida so'yilgan novos go'shtidan qolgan bir bo'lak suyakni hafsala bilan g'ajimoqda. Oshxonada xamir qorayotgan ayolning avzoyi nishi yo'q aridek buzuq. Har zamonda go'dak yig'isi eshitilayotgan derazaga qarab xo'rsinib qo'yadi. Nima qilsin? "Ro'zg'or g'or" deyishadi. Bu tanbal er esa, shu g'orning og'ziga tiqilib qolgan tiqinga o'xshaydi. Bir ayolning topgani shom botguncha. Unda baraka bo'lmaydi. Ammo sabrning ham chegarasi bor. Oxiyri bo'lmadi. Hali xamirini qorib ulgurmagan ayol, eri yotgan ayvon tomonga shitob bilan yurib ketdi.

— Hoy, o'lar bo'lsam o'lar bo'ldim. Bir boshimga shuncha tashvish. Bundoq yumushlarga yordamlashay demaysiz. Ana, ichkarida kichkinangiz chinqirib yotibdi. Qorni och. Ovqat qilishga hech vaqo yo'q. Shu ham hayot bo'ldimi? Bo'ldi ketaman. Bu yerni yelkamning chuquri ko'rsin, - deya eshik tomonga yo'naldi.

Bunga javoban er, ustidagi ko'rpani boshiga burkab oldi. Ayol kishining g'azabi qaynab turgan sutga o'xshaydi. Ko'pirib toshadi-yu, bir uyum kuyundiga aylanadi qoladi. Lekin bu safar g'urur o'lgur qo'ymadi. G'azabi qo'zigan xotin bolalarini yetakladi-yu onasinikiga ketib qoldi. Yo'lida g'ingshib chiqqan jonajon Olaparini ham turtib o'tib ketdi.

Ota uyida ham ahvol shu. Bir hovlida uch o'g'ilning qanday yashashi o'zingizga ma'lum. Faqatgina onayizoriga ichi achiydi. Hali u kelinning qovog'iga qarasa, hali bu o'g'ilning zardasini ko'taradi. Dadasi erta olamdan o'tmaganidaku bu ahvolga tushmasmidi? Shu xayollar bilan manzilga yetib kelganini ham bilmay qoldi. Ichkariga kirishi bilan katta kelinning zardali ovozi eshitildi:

— Nima balo qulog'ingiz tom bitganmi? Qachon qarama uxlaganiz uxlagan. Bu axvolda ro'zg'orga kim qaraydi. Ana, ukangiz xotiniga tilla zirak olib beribdi. Kichkina kelinning og'zi to'la tilla tish. Men qachon kun ko'raman bu uyda o'zi?

Singlingizni eridan o'rgansangiz bo'lmaydimi? Xotinini kaftida ko'tarib yuradi-ku.

Shu gaplarni aytib, ortida turgan qaynsinglisini ko'rib qoldi va xijolat bo'lib, ichkariga kirib ketdi. Nargiza esa hayron. Uning holiga ham havas qiladiganlar topilar ekan. Ammo kelinoyisining akasiga aytgan gaplari ko'nglini ozdirib yubordi. O'zining ham bir oz oldin eriga qilgan muomalasi esiga tushib, uyalib ketdi. Ichkaridan chiqib kelgan onasi bilan so'rashib, hay-haylashiga qaramay uyiga yo'l oldi. Borib, eridan kechirim so'rashni ko'ngliga tugib qo'ydi.

Hovliga qadam qo'yishi bilan qovurdoq hidi dimog'ini qitiqladi. G'arbdan chiqqan quyoshdek, erini qozon boshida ko'rib bir oz kalovlanib qoldi. Dasturxon tuzatilgan, so'ri atrofi suv sepib yaxlatilgan, qozonda ovqat mildirab qaynab yotardi. Nima bo'lgan taqdirda ham insof bergani rost bo'lsin.

Kechki ovqatni ishtaha bilan yeb bo'lgach, Nargizaning yodiga g'ingshib yotgan Olapar keldi. Dasturxon chetida turgan suyaklarni tashqariga olib chiqib, itni chaqirdi:

—Olapar, Olapar!

Ammo javob bo'lmadi. Qo'lidagi suyaklarni bir-biriga urib yana chaqirdi. Hamma yoq suv quygandek jim-jit. Shunda ichkaridan erining to'ng'illagan ovozi eshitildi:

— Nega buncha baqirasan? Olapar qo'lingda-ku!

Maxsuma OQQO'ZIYEVA